O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
va Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
B. Beysenov nomidagi Karaganda akademiyasi
M E M O R A N D U M I

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining B. Beysenov nomidagi Karaganda akademiyasi, bundan buyon matnda Ishtirokchilar deb ataladi,

maxsus va harbiy ta’lim tizimida fan, ta’lim va ta’lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlikni rivojlantirishga intilib,

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishda o‘zaro qiziqishni bildirib,

Ishtirokchilarning hamkorlikni mustahkamlashga tayyorligidan kelib chiqib,

uzoq muddatli hamkorlikni davom ettirishning asoslarini yaratish maqsadida,

quyidagilar bo‘yicha o‘zaro anglashuvga erishdilar:

1. Mazkur Memorandum doirasida (bundan buyon matnda Memorandum deb yuritiladi) Ishtirokchilar quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlikni mustahkamlash niyatini bildiradilar:

- oliy, oliy ta’limdan keyingi va qo‘shimcha ta’lim sohasida kasbiy hamkorlikni rivojlantirish;
- o‘zaro manfaatli sohalarda ta’lim va ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati sohasida tajriba almashish;
- professor-o‘qituvchilar tarkibi, talabalar (kursantlar, tinglovchilar), shuningdek ilmiy xodimlar bilan almashish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Ishtirokchi davlatlarning milliy qonunchiligi va xalqaro majburiyatlariga muvofiq, o‘zaro manfaatli sohalarda ilmiy-texnik hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash.

2. Ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

o‘zaro manfaatli sohalarda ta’lim va ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

birgalikda ta’lim va ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini amalga oshirish;

talabalar (kursantlar, tinglovchilar) bilan o‘zaro almashish;

professor-o‘qituvchilar tarkibini malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘zaro yordam ko‘rsatish;

birgalikda akademik konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, o‘quv kurslar va ko‘rgazmalarni tashkil etish va ishtirok etish;

o‘quv dasturlari va ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha adabiyotlar va materiallari bilan o‘zaro almashish.

masofaviy ta’lim sohasida tajriba almashish;

Сканировано с CamScanner

ilmiy, harbiy-texnik sohalarda hamda mazkur sohalardagi yangi yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha Ishtirokchilarning qo‘shma loyihalarini amalga oshirish;

Ishtirokchilar tomonidan o‘tkaziladigan sport va madaniy tadbirlarda ishtirok etish;

kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish sohalarida hamkorlikning boshqa o‘zaro manfaatli shakllari.

3. Mazkur Memorandum Ishtirokchilarga hamkorlikning boshqa o‘zaro maqbul yo‘nalishlari va shakllarini aniqlash va rivojlantirishga to‘sqinlik qilmaydi.

4. Ishtirokchilar mazkur Memorandum doirasida ikki tomonlama hamkorlik samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qilish maqsadida uchrashuvlar va konsultatsiyalar o‘tkazish niyatini bildiradi.

Mazkur Memorandum doirasida Ishtirokchilarning hamkorlik tadbirlarini muvofiqlashtirish:

O‘zbekiston tomonidan – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Xalqaro hamkorlik boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘limiga;

Qozog‘iston tomonidan – Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xalqaro hamkorlik boshqarmasi va Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Barimbek Beysenov nomidagi Karaganda akademiyasi Rejalashtirish va nazorat bo‘limiga yuklatiladi.

5. Yozishmalar mazkur Memorandumga muvofiq bevosita Ishtirokchilar o‘rtasida amalga oshiriladi.

Mazkur Memorandum doirasida o‘zaro hamkorlik va birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida, Ishtirokchilarning 4-bandda ko‘rsatilgan bo‘linmalari, o‘zaro bevosita aloqalarni amalga oshirishlari mumkin.

6. Mazkur Memorandum asosida hamkorlikni amalga oshirish uchun Ishtirokchilar rus tilidan foydalanadilar.

7. Agar har bir holat bo‘yicha boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur Memorandumni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar Ishtirokchilarning o‘zlari tomonidan qoplanadi.

8. Mazkur Memorandum xalqaro shartnoma hisoblanmaydi va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan hech qanday huquq hamda majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

9. Mazkur Memorandum doirasida Ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik Ishtirokchilar davlatlari qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

Сканировано с CamScanner

10. Mazkur Memorandumni talqin qilish yoki qo‘llash bilan bog‘liq barcha kelishmovchiliklar, Ishtirokchilar tarafidan maslahatlashuvlar va muzokaralar orqali hal qilinadi.

11. Mazkur Memorandumga Ishtirokchilarning o‘zaro kelishuviga muvofiq, uning ajralmas qismi hisoblanadigan hamda alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

12. Mazkur Memorandum besh yil muddatga tuziladi va imzolangan kundan boshlab amal qiladi.

Mazkur Memorandum Ishtirokchilaridan biri uning qo‘llanilishini tugatish niyati to‘g‘risida boshqa Ishtirokchiga tegishli yozma xabarnoma jo‘natish orqali bekor qilishi mumkin.

Mazkur Memorandum tegishli yozma xabarnoma olingan kundan uch oy o‘tgunga qadar amalda bo‘ladi.

13. Toshkent shahrida 2021 yil “10” noyabr kunida ikki nusxada, har biri o‘zbek, qozoq va rus tillarida imzolandi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Mazkur Memorandum matnlari o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, Ishtirokchilar rus tilidagi matnga murojaat qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan	**Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining B. Beysenov nomidagi Karaganda akademiyasi tomonidan**
M. Rustambayev	**A. Darmenov**

Сканировано с CamScanner